(7). [4; 4 b.] Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 88–89-betlar.

(8). [5; 5 b.] Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 29-bet.

Ochilov Sarvar Safayevich (O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sarvar.ochilov@mail.ru)

HAZRAT ALI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma’naviy muhitning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Unda Muhammad payg‘ambarning tarbiyasi va Hazrat Ali yashagan islomiy muhit ta’sirida uning g‘oyatda oqil, insonparvar, do‘stga sadoqatli, diyonatli bo‘lib shakllangani tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad payg‘ambar, Ali ibn Abu Tolib, ijtimoiy-ma’naviy muhit, islom, tarbiya, insonparvar, adolatparvar, sadoqatli, jasurlik, fidoyilik.*

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ХАЗРАТА ИМАМА АЛИ

Аннотация. *В данной статье показано значение социально- духовной среды в формировании личности Имама Али. В ней анализируется, что под влиянием воспитания Пророка Мухаммеда и исламской среды, в которой жил Имам Али, он сформировался как чрезвычайно умный, гуманный, набожный и преданный своим друзьям.*

Ключевые слова: *Пророк Мухаммед, Али ибн Абу Талиб, социально-духовная среда, ислам, воспитание, гуманный, справедливый, преданный, храбрость, самоотверженность.*

THE ROLE OF SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF HAZRAT IMAM ALI

Annotation. *This article shows the importance of social and spiritual environment in the formation of the personality of Imam Ali. In it, it is analyzed that under the influence of the upbringing of Prophet Muhammad and the Islamic environment in which Imam Ali lived, he became extremely intelligent, humanitarian, loyal to his friends, and pious.*

Key words: *Prophet Muhammad, Ali ibn Abu Talib, socio-spiritual environment, Islam, upbringing, humane, just, faithful, courage, selflessness.*

Kirish (Introduction). Inson qaysi ijtimoiy tuzumda yashashidan qat’i nazar, uni muayyan muhit o‘rab turadi. Boshqacha qilib aytganda, kishi tabiat ne’matlaridan bahramand bo‘ladi, odamlar va jamiyat o‘zaro munosabatda kun kechiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kishilar tabiat va ijtimoiy-ma’naviy muhit ichida tirikchilik qilishadi. Demak, tabiat hodisalari, ijtimoiy tuzumning voqealari insonga u yoki bu darajada ta’sir etishi o‘z-o‘zidan ayon. Xuddi shuningdek, inson ham tabiatga va ijtimoiy tuzumga moslashadi va ta’sir etadi.

Inson davr va tarixiy tajribalar asosida o‘zi uchun muhit yaratadi. Biroq u shu muhit ta’siri ostida yashaydi, mehnat qiladi, o‘zining kelajagini yaratadi. Bu holat fikrlash ko‘lami tobora kengayib borayotgan, aql-idroki o‘sayotgan kelgusi avlod kishilarining moddiy-ma’naviy ehtiyojlari asosida o‘zgarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mavzuni yoritishda bir necha avtobiografik, tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan. Jumladan, Hazrat Alining tavallud sanasi, bolaligi, nasl-nasabi, shaxsiyati, faoliyati haqida ma’lumot berish uchun Shayx Muhammad Xuzariyning “Nur al-yaqin fi siyrat sayyid al-mursalin ma’a itmom al-vafo fi siyrat al-xulafo”, Ali Muhammad as-Sallabiyning ruscha tarjimadagi “Али ибн Абу Талиб. Четвёртый праведный халиф”, Balqiz Aladdinning “Muhammad payg‘ambar qissasi” hamda Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarlariga murojaat qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma’naviy muhitning ta’sirini tahlil qilishda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ilk islom davrida, ayniqsa, islom ma’naviyati vujudga kelgan Makkada ijtimoiy-ma’naviy muhit o‘zgacha ma’no va mazmun kasb etgan. Bu, albatta, Muhammad payg‘ambarning dunyoga kelishi hamda unga Qur’oni karimning nozil bo‘lishi kabi muborak voqea-yu hodisalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu davrga qadar ma’naviy-mafkuraviy yo‘nalish johiliyat davri va adabiyoti ta’siri ostida edi. Bu insonlarning e’tiqodi darajasiga ko‘tarilib, ularning butun ruhiga singib kirib, yashash va turmush tarziga aylangandi.

Zotan, Muhammad payg‘ambar payg‘ambarlik darajasiga erishganidan so‘ng ijtimoiy-ma’naviy muhit keskin o‘zgardi, odamlarning dunyoqarashi, fikrlashi boshqacha ma’no-mazmun kasb eta boshladi. Xuddi shu fikrni Ali ibn Abu Tolibga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki u o‘sha kezlarda Muhammad payg‘ambar uyida yashab, uning tarbiyasidan bahramand edi.

Bas, Hazrat Alining bolaligi va yoshligi, nasl-nasabi haqida ilmiy ma’lumot berib o‘tish muhimdir. U Abu Tolibning o‘g‘li bo‘lib, Shayx Muhammad Xuzariyning xabar berishicha, Muhammad payg‘ambardan 32 yil keyin tug‘ilgan. Muhammad payg‘ambar esa 570-yili tavallud topgan. Demak, Hazrat Alining tug‘ilishi 602-yilga to‘g‘ri keladi [1;409-b.]. Ba’zi mualliflar uning Muhammad payg‘ambarning payg‘ambarligi boshlanishidan o‘n yil burun tug‘ilganini aytishgan [2;26-b.]. Muhammad payg‘ambarning payg‘ambarligi 610-yilda boshlangan. Bu fikrga ko‘ra, Hazrat Ali 600-yilda tug‘ilgan bo‘ladi.

Imom Ali ibn Abu Tolib ibn Abdul Muttalib ibn Hoshim eng mashhur shaxs bo‘lib, u payg‘ambar amakisining o‘g‘lidir. Abu Tolibning xotini Fotima bint Asad edi. Uni Muhammad payg‘ambarning qizi Fotima bilan adashtirmaslik kerak. Abu Tolibning xotini Fotima bag‘oyat taqvodor ayol edi. O‘g‘il ko‘rishidan sal oldinroq u ibodat qilish uchun Ka’baga boradi. G‘oyibdan kelgan ovoz unga “ichkariga kir” deb buyuradi. Devor surilib, yo‘l ochilgach, Fotima ichkari kiradi. Devor yana bekiladi. Qurayshlar buni eshitib, hayajonga tushishadi. Ular Ka’ba eshigiga kalit solib, ochmoqchi bo‘lishadi. Biroq qancha urinishmasin, qulflarga solingan kalitlar aylanmaydi. Ular Ka’ba eshigini ocholmay, taqdirga tan berishadi. Uch kundan so‘ng hang-u mang qurayshlarning ko‘z o‘ngida qulflar o‘z-o‘zidan yechilib, Ka’ba eshigi ochiladi. Eshikda chaqaloq Alini bag‘riga bosib, Fotima ko‘rinadi. Alining tug‘ilganini eshitib, Muhammad Ka’baga oshiqadi. Fotima ichkaridan chiqib kelib, bolani Muhammadga tutadi. Shunday qilib, Alining dunyoga ko‘z ochib, birinchi ko‘rgan kishisi Muhammad bo‘ladi.

Majusiy arablar chaqaloq tug‘ilarkan, uni shaytonlar o‘rab olishadi, shu sababli bola chirqirab yig‘-laydi, deb ishonishar edi. Ular go‘dak Alining nuqul tabassum qilishini ko‘rib, hayron qolishadi. Fotima, keyinchalik, Alini Muhammadning tarbiyasiga topshiradi. Ali Muhammadning doimiy yo‘ldoshiga aylanadi, hatto kechalari ham u bilan yonma-yon uxlaydi [3;16-b.].

Demak, Ali Rasulullohga ma’lum darajada o‘g‘il hamdir. Chunki yigit yoshidagi Muhammad bolasi ko‘p bo‘lgan amakisi Abu Tolibga rahmi kelib, amakisining og‘irini yengil qilish uchun (bobosi Abdul Mutallib vafotidan so‘ng amakisining unga qilgan iltifotiga javoban) amakisining o‘g‘illaridan birini (bu Alidir) o‘z qaramog‘iga oldi. Shunday qilib, Ali ibn Abu Tolib bolalik chog‘ida yoshi 30 yoshdan ancha katta bo‘lgan amakisining o‘g‘li Muhammad payg‘ambarning tarbiyasiga o‘tdi.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu, dastlab, amakisi Abdullohning o‘g‘li Muhammad bilan birga unib o‘sdi. Payg‘ambar ishonchliligi, to‘g‘riso‘zligi, aql-idrokining yuksakligi va adolatparvarligi bilan shuhrat qozongandi, shuningdek, u so‘zamol va notiq edi.

Amakisining o‘g‘lini o‘ziga namuna qilib, unga xulq-atvorida va yurish-turishida ergashgan bola – Ali shaxsiga bularning ta’siri katta bo‘ldi. Shu sabab Ali amakisining o‘g‘li Muhammad payg‘ambarning islomga chaqirig‘iga eng oldin javob bergan edi va u bu davrda 8 – 10 yoshlar atrofida bo‘lgan.

Bolalarning yangi dinga kirishi hali ma’lum emas edi. Ular uchun bu borada hali majburiyat bo‘lmagan. Lekin yangi dinni qabul qilishda namuna bo‘lish ta’sirchan qudratga ega bo‘ldi. Odatda, bu yoshdagi bola unga yaqin kishilar biror narsa qilsalar, ularga taqlid qilishga kirishadi. Bola otasi namoz o‘qiganda unga taqlid qiladi. Sajda qilsa, sajda qiladi, rukuga borsa, rukuga boradi. Biz bildikki, Ali Muhammad payg‘ambar hifzi-himoyasida unib o‘sdi, undan eshitganini qaytarishining ajablanarli joyi yo‘q. Shuning uchun ham islomga da’vatda yoki uni qabul qildirishda Aliga nisbatan katta bir og‘irlikni kuzatmaymiz va ko‘rmaymiz. Unga payg‘ambarimiz Madinaga hijrat qilguniga qadar muhim vazifalar topshirilmagan. Lekin u hijrat kechasi payg‘ambar to‘shagida uxlagan (Bu haqda va uning mohiyati haqida keyinroq to‘xtalamiz). Bu juda muhim voqea bo‘lib, o‘zini o‘limga ro‘baro‘ qilib qilingan vazifa ham deyish mumkin. O‘sha paytda Alining yoshi taxminan o‘n to‘qqiz–yigirma yosh atrofida edi. Uning xavf-xatardan qo‘rqmay, bu ishga unashi maqtovga sazovordir. Hijratdan keyin Ali g‘azavotlar davrini boshdan kechirdi. Bu islom davlatining, yangi boshlanayotgan ijtimoiy tuzumning ilk davri edi.

Islom tuzumining asosi qurilayotgan, kufr bilan yuzma-yuz kurash ketayotgan shunday ijtimoiy-ma’naviy muhitda Ali ibn Abu Tolib voyaga etdi. U sanamlarga sajda qilmadi, may ichmadi, johiliyat davri gunohlaridan hech biriga amal qilmadi. Shunday pokiza bo‘lib voyaga yetgani tufayli Ali ibn Abu Tolib payg‘ambarimiz tomonidan ko‘plab olqishlarga sazovor bo‘lgan, hatto xalifalik lavozimiga ham erishdi. Buning sababini Hazrat Aliga nisbatan Rasulullоh tarbiyasidan izlash lozim.

Darhaqiqat, Ali ibn Abu Tolib xulafoyi roshidin, ya’ni to‘g‘ri yo‘ldan yurgan xalifalarning to‘rtinchisi hisoblanadi. Ali juda qiyin bir vaziyatda xalifalikka keldi. Shaharlardan vakillar Usmon ibn Affonga qar-

shi qo‘zg‘alib, uni qurshovga oldilar. Bu qo‘zg‘olonchilar Usmon roziyallohu anhuni, hatto o‘ldirishga borib yetdilar. Uning o‘limidan so‘ng juda ko‘p kishilar Aliga xalifalikni qabul qilishni taklif qildilar va bunga da’vat etdilar. Ali ham, o‘z navbatida, xalifalikni va uning qasamyodini qabul qildi. Biroq jamoatchilik orasida boshqa bir masala ko‘ndalang bo‘lib turdi. O‘zlari xohlamagan xalifani o‘ldirgan bir to‘da kirdikori ochilmay qolaveradimi? O‘ldirilgan xalifaning qoni bekordan bekorga to‘kilib ketaveradimi?

Aslida, Usmonni uning muxoliflari harbiy va davlat miqyosidagi mansablarga o‘z qavmi hamda qarindosh-urug‘larini tayinlaganlikda ayblaydi. Bundan norozi arablar o‘zaro guruhlarga bo‘linib, birlashadilar. Ular Usmonning xalifa qilib saylanishi g‘ayri qonuniy, Alini saylash lozim edi, degan fikrni ilgari suradilar. Alini xalifa qilib saylashga uning Rasulullohga amakivachcha, shuningdek, kuyov ekani sabab qilib ko‘rsatiladi.

Usmonning qotillaridan qasos olinishini talab qilib, Shomdan Muoviya ibn Abu Sufyon, shuningdek, mavjud vaziyatni musulmonlarning kelajagi va ularning barqarorligi uchun xatarli bilib, uni to‘g‘rilash maqsadida mo‘minlarning onasi – Oisha roziyallohu anho chiqdi.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu hamma narsadan davlat ishining barqarorlashuvini muhimroq deb bildi. Natijada Muoviya unga qarshi jang e’lon qildi va ikki o‘rtada qattiq janglar bo‘ldi. Ali tuya, Siffin janglarida jang qildi. So‘ng tahkim (betaraf hakam, vakil saylash) taklifi yuz berdi. Tahkim Ali ibn Abu Tolibning kuchiga qaqshatqich zarba bo‘lib tegdi. Siffin jangida aslida Ali askarlari g‘olib kelayotgan edi. Biroq u ko‘p qon to‘kilmasligini nazarda tutib, tahkim taklifini qabul qildi. Adolat bo‘ladi, deb kutdi. Alidan juda ko‘p hamrohlari, ya’ni xorijiylar ajralib chiqdi.

Ali ibn Abu Tolib Kufa shahrini hukumatining qarorgohi, o‘z davrida davlatning poytaxti qilib oldi. Shu tariqa, Ali roziyallohu anhu xalifalikni Rasulullоh shahridan (ya’ni, Madinadan – S.O.) Arabiston yarim orolining tashqarisiga birinchi bo‘lib ko‘chirdi. Balki bu uning Kufa va uning atrofidagi tarafdorlari Madinaga nisbatan ko‘p deb ishongani sabablidir yoki buning siri Shomni makon tutgan Muoviyaga yuzma-yuz turishdir.

Shu o‘rinda bir hayotiy haqiqatni yanada ravshanroq qilib ko‘rsatib o‘tish zarur. Muhammad payg‘ambar onasining qornida ekanida uning otasi Abdulloh vafot etgan edi, keyinchalik, u onasidan juda yosh yetim qolgan. So‘ng yosh Muhammad bobosi Abdul Mutallib tarbiyasida qoladi. Bobosi olamdan o‘tgandan keyin u amakisi Abu Tolib qaramog‘iga o‘tgan. Xuddi shuningdek, taqdir taqozosi bilan Hazrat Ali ham otasi Abu Tolib bandalikni bajo keltirganidan keyin, amakisining o‘g‘li Muhammad payg‘ambar uyida yashaydi va tarbiyalanadi.

Muhammad payg‘ambarning bolaligi ham, yoshligi ham nihoyatda qiyin ahvolda o‘tgan. Ota-onasidan juda yoshligida yetim qolish, ayniqsa, ulardan meros qolmagani tufayli unga tirikchilik uchun ham, ilm olish uchun ham, aslo, imkon bo‘lmagan. Biroq Muhammad payg‘ambar fe’l-atvori nihoyatda yoqimli, qarindosh-urug‘lariga mehribon, do‘st-birodarlarga sadoqatli, odamgarchilik jihatdan barchaga namunali, muomala-munosabati shirin va muloyim, qo‘ni-qo‘shnilar bilan aloqasi mustahkam, ko‘ngli yumshoq, katta-yu kichikning hurmatiga sazovor inson bo‘lganlar. Shuning uchun uni qabiladoshlari Amin (ishonchli) deb ataganlar. Bu xislat va fazilatlarning bir oilada istiqomat qilayotgan, tarbiyalanayotgan bolaga o‘tishi, singib ketishi aniq. Shuningdek, Muhammad payg‘ambarning turmush o‘rtog‘i Xadicha onamizning o‘zi nihoyatda rahmdil, xushfe’l, bolaparvar, mehribon, bag‘rikeng, ozoda va sarishta, tadbirkor ayol bo‘lganlar. Eng asosiysi, Muhammad payg‘ambar bilan Xadicha onamiz o‘ta inoq, ahil, yaqin sirdosh oila bo‘lib yashagan.

Shunday hikmatli oila muhiti yosh Aliga o‘z ta’sirini o‘tkazgani o‘z-o‘zidan ma’lum. Shu ta’sir tufayli yosh Ali g‘oyatda oqil, insonparvar va qarindoshparvar, do‘stga sadoqatli, diyonatli bo‘lib o‘sdi. Uning o‘ta ko‘rkam, ko‘z-yuzlaridan nur tomib turgani tevarak-atrofdagi kishilarni hayratga solgan. Umuman olganda, yosh Ali amakisining o‘g‘li Muhammad payg‘ambarning turli tomonlama hurmat-e’tiborini qozongan. Bu xususda Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida shunday deyiladi: “Rasul alayhissalom aydi: “Yo Ali, seni suvgan mo‘min turur, seni dushman tutqan – munofiq turur”. Yana yorliqadi, Alining suvuklini yozuqni tugatur, netakkim o‘t o‘tunni tugatur. Yana yorliqadikim, Alini ko‘ngul birla suvsa maning ummatimning uchda birining savobi berilgay. Taqi Alini ko‘ngli, taqi joni birla suvsa qamug‘ ummatimning tubi berilgay” [4;135-b.].

Muhammad payg‘ambarning ushbu so‘zlari falsafiy-mantiqiy-didaktik ma’no-mazmun bilan yo‘g‘rilgan. Darhaqiqat, yaxshi, to‘g‘ri so‘z, haqiqatchi odamlarni faqat yaxshi kishilar qadrlaydi. Munofiqlar, firibgarlar, umuman, yomon kishilar esa adolatli va haqiqatchi odamlarni xush ko‘rmaydilar. Rasulullоh keyingi so‘zlarida ummatlarini Alidek mard, jasur, adolatparvar, insonparvar, shijoatli va sadoqatli insonni

yanada e'zozlashga, uning qadriga yetishga chaqiradi. Muhammad payg'ambarning bu beqiyos hurmatiga sazovor bo'lish bu bebaho baxtdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Muhammad payg'ambargacha johiliyat davrining ta'siri juda kuchli edi. Ma'lumki, Rasulullohga 40 yoshidan e'tiboran vahiy kela boshlaydi, ya'ni Qur'oni karim nozil bo'la boshlaydi. Bu dalil Muhammadning Alloh elchisi, ya'ni payg'ambar bo'lganini ko'rsatadi. Unga birinchi bo'lib, Xadicha, keyin Ali va boshqalar imon keltirishgan. Endi Muhammad payg'ambar, dastlab, qarindosh-urug'larini, do'st-birodarlarini, qavmini va keyin boshqa odamlarni islom diniga da'vat etishni boshlaydi. Biroq bu yo'lda unga juda katta qiyinchiliklar bo'ladi va u qattiq ta'qib-tazyiqlarga uchraydi.

Rasulullоh qavmining ko'pchiligi uni pokligi, odamgarchiligi, muloyimligi, mehr-oqibatliligi, adolatli va diyonatli bo'lgani uchun qattiq hurmat qilardi, unga ishonishardi. Shuning uchun unga, dastlab, qavmining e'tiqodi but odamlari, do'st-birodarlari ergashishdi. Islom dini muxoliflari, butlarga sig'inuvchi kimsalar Rasulullohga qarshi keskin kurash, uni obro'sizlantirish yo'liga o'tdilar. Bunday paytlarda Muhammad payg'ambarga eng yaqin kishilari ezgu maqsadni amalga oshirishda yordam berishdi. Ayniqsa, Hazrat Alining mardligi, jasurligi, fidoyiligini alohida ta'kidlash lozim. U bu fazilatlarini Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilgan vaqtda yorqin namoyon qildi. Rasulullohning hayoti, qilgan ishlarini keng qamrovda tadqiq etgan Shayx Muhammad Xuzariy Hazrat Ali ibn Abu Tolibning fidoyiligi, jasurligi, amakisining o'g'li Rasulullohga cheksiz e'tiqodi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Islom g'animlarining shafqatsizona ta'qibi va tazyiqi tufayli Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilishga majbur bo'ladi. Hayoti xavf ostida qoladi. Uyini esa muxoliflari kuzatib turadi. Bundan xabar topgan Hazrat Ali ham amakisining o'g'lini qutqarish, Makkadan eson-omon chiqarib yuborish choralari haqida o'ylaydi. Rasulullоh boshqa sirli eshikdan chiqib ketadi va Madinaga qarab yo'l oladi. Bundan uning dushmanlari bexabar qoladi va o'z yotoqxonasida uxlab yotibdi, deb o'ylashib, xotirjam turishadi va uning uydan chiqishini poylashadi.

Biroq Muhammad payg'ambar chiqavermagach, uning yotog'iga kirib, ko'rpasini ko'tarishadi. O'rindiqda Rasulullоh emas, balki Hazrat Ali yotardi. Bu holat va vaziyatda Hazrat Alining quyidagi ma'naviy-axloqiy tomonlari kuzatiladi:

1. Islom diniga nisbatan e'tiqod va imon.
2. Amakisining o'g'liga mehr-oqibat va sadoqat.
3. Diniy e'tiqodi yo'lidagi fidoyiligi, jasurlik, mardlik.

O'zbekiston davlati mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun fidoyi, jasur, mard va e'tiqodi yuksak insonlar zarur. Islom Alidek fidoyilar tufayli keng tarqaldi, mustahkamlandi. Uning timsoli hozirgi kishilar uchun namunaviy ahamiyatga egadirki, u haqdagi ma'lumotlarni keng targ'ib va tashviq qilish kerak.

Yuqoridagi dalildan ijtimoiy-ma'naviy muhitning Hazrat Aliga, o'z navbatida, Alining muhitga o'zaro ta'siri yaqqol ko'rinib turibdi. Bunday o'zaro ta'sir mustaqillik ma'naviyatimiz, madaniy-ma'rifiy e'tiqodlar, badiiy adabiyot uchun muhimdir. Darhaqiqat, bu kabi holatlarni turli yo'l, usul va metodlar vositasida yuzaga chiqarish hamda odamlar ongiga singdirish lozim.

Mashhur mufassir Ibn Kasir Abu Tufaylning rivoyatlariga qaraganda, u Hazrat Ali roziyallohu anhuning minbarda turib va'z aytayotgani xususida hikoya qiladi. Hazrat Ali: – Allohning muqaddas kitobi oyatlaridan, Payg'ambar alayhissalom sunnatlaridan savol beringiz, men javob qilay, – debdi. Shunda Ibn Kivo ismli kishi o'rnidan turib: – Ey mo'minlarning amiri, "vaz-zariat"ning ma'nosi nima? – deydi. Hazrat Ali "Shamol" deb javob beribdi.

U kishi: "Val-hamilat" degani-chi?

Hazrat Ali: "Bulut" debdilar.

Ibn Kivo yana "Fal-jariat" degani-chi? – deb so'rabdi.

Hazrat Ali: "Kema" deb javob beribdi.

O'sha kishi "Fal-muqossimot" degani-chi, desa, Hazrat Ali "Farishta" debdilar.

Boshqa biri esa xuddi shu savollarni Hazrat Umar ibn Xattobga beradi. Hazrat Umar yuqoridagi savollarga Hazrat Ali qanday javob bergan bo'lsa, xuddi shu javobni qaytaradi. Biroq Hazrat Umar bu kishining fitnachi ekanini payqab qoladi va uni qattiq jazolaydi. Hazrat Umarning bu ishi juda to'g'ridir. Chunki fitnachi, ig'vogarlarga yo'l berish, shubhali ishlariga imkon yaratish, aslo, mumkin emas. Hozirgi kundagi ko'pgina kelishmovchiliklar, gina-kuduratlar, xunuk voqea va hodisalar ham, asosan, fitnachi, fisqu fujurchilar kasofati tufayli kelib chiqayotgani sir emas. Fitnachilar bugungi kunda ham qattiq jazolanishlari lozim. Bunday kishilarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralari ta'sirchan kuchga egaki, uning tarbiyaviy natijasi tezda ko'zga tashlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kuzatishlar natijasida ilk islom davri ijtimoiy-ma'naviy muhiti va Rasulullohning shaxsiy tarbiyasi tufayli Hazrat Ali barkamol inson sifatida shakllanganligi aniqlandi. U, hatto xalifalik martabasigacha erishdi. Ichki va tashqi muhit ta'sirida Hazrat Ali ibn Abu Tolib shunday zukko, donishmand inson bo'lib yetishdiki, uning bu fazilatlari hozirgi davr uchun ham namuna – ibrat bo'lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

(1). Shayx Muhammad Xuzariy. Nur al-yaqin fi siyrat sayyid al-mursalin ma'a itmom al-vafo fi siyrat al-xulafo. – Toshkent: Dor Movarounnahr (1413 h.y – 1992-yil).

(2). Ас-Салляби. Али Мухаммад. Али ибн Абу Талиб. Четвёртый праведный халиф. Пер. с араб., прим., комм. Е.Сорокоумовой, Москва, "Умма", 2013.

(3). Balqiz Aladdin. Muhammad payg'ambar qissasi (ingliz tilidan Jamol Kamol tarjimasi). Toshkent, "Kamalak", 1991.

(4). Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob, Toshkent, "Yozuvchi", 1991.

Utegenova Jamila Djolmurzayevna (Innovatsion texnologiyalar universiteti "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasi d.v.v.b.)

BIOETIKA SOHASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bioetika tushunchasining shakllanishi, uning ilmiy-nazariy asoslari, tibbiyot va biologiya sohalaridagi roli, hamda O'zbekistonda bioetika madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bioetika global muammolar kontekstida, ayniqsa, gen muhandisligi, transplantatsiya, sun'iy intellekt, eksperimental tadqiqotlar va inson huquqlari bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal qilishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada xalqaro tajriba (UNESCO, WHO) asosida O'zbekistonda bioetika institutlarini tashkil etish, axloqiy me'yorlarni shakllantirish va ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *bioetika, axloqiy me'yor, gen muhandisligi, tibbiy etik, inson huquqlari, ilmiy mas'uliyat.*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЛАСТИ БИОЭТИКИ

Аннотация. *В статье анализируется формирование понятия биоэтики, ее научно-теоретические основы, ее роль в сферах медицины и биологии, механизмы развития биоэтической культуры в Узбекистане. Биоэтика рассматривается как важный фактор решения актуальных вопросов в контексте глобальных вызовов, особенно связанных с генной инженерией, трансплантацией, искусственным интеллектом, экспериментальными исследованиями и правами человека. В статье выдвигаются предложения по созданию в Узбекистане институтов биоэтики, формированию этических стандартов и их интеграции в систему образования на основе международного опыта (ЮНЕСКО, ВОЗ).*

Ключевые слова: *биоэтика, этические стандарты, генная инженерия, медицинская этика, права человека, научная ответственность.*

MECHANISMS OF FORMING THE FIELD OF BIOETHICS

Annotation. *This article analyzes the formation of the concept of bioethics, its scientific and theoretical foundations, its role in the fields of medicine and biology, as well as the mechanisms for developing a culture of bioethics in Uzbekistan. Bioethics is considered an important factor in solving urgent issues in the context of global problems, especially genetic engineering, transplantation, artificial intelligence, experimental research and human rights. The article puts forward proposals for the establishment of bioethics institutes in Uzbekistan, the formation of ethical standards and their integration into the education system, based on international experience (UNESCO, WHO).*

Keywords: *bioethics, ethical standards, genetic engineering, medical ethics, human rights, scientific responsibility.*

Kirish. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa, tibbiyot, biologiya va gen muhandisligidagi yutuqlar insoniyat tarixida misli ko'rilmagan imkoniyatlarni yaratmoqda. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga, inson axloqi, huquqi, erki va hayoti bilan bog'liq murakkab muammolar ham vujudga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fan va texnologiyaning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy chegaralarini belgilovchi bioetika sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bioetika – bu inson hayoti va salomatligi bilan bog'liq masalalarda ilmiy izlanishlar va amaliy qarorlar qabul qilishda axloqiy tamoyillarning asosiy mezoni hisoblanadi. Bioetika atamasi ilk bor 1970-yillarda